


2020- yilning yanvar-oktabr oylarida Toshkent viloyatida xizmatlar sohasining rivojlanishi

Zamonaviy iqtisodiyotda xizmatlar sohasining o'рни, mazkur sohada iqtisodiy o'sishning asosiy omillari, aynan, yangi ilmiy bilimlar, aqliy kapital, axborot texnologiyalari, moliya sektori xizmatlari, konsalting va boshqalar shakllanishi bilan izohlanadi.

2020- yilning yanvar-oktabr oylarida xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari



Iqtisodiyotning ushbu sektori turli xil faoliyat turlarini o'z ichiga olib, ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga yordam beradi. Ushbu faoliyatning yakuniy natijasi tayyor mahsulot emas, balki ko'rsatilgan xizmatlardir. Xizmatlar nafaqat korxonalariga, balki jismoniy shaxslar - yakuniy iste'molchilarga ham ko'rsatilishi mumkin.

Xizmatlar sohasi bu — korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli xil xizmatlar, ishlab chiqarishni o'z ichiga olgan umumlashtirilgan toifadir. Ushbu sohani ko'pincha rivojlangan zamonaviy infratuzilma tufayli sanoatdan keyingi iqtisodiy tuzilma tarzida ko'riladi.

Ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2020- yilning yanvar-oktabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 13 523,6 mlrd. so'mga yetdi. Uning nominal hajmi 1 717,7 mlrd. so'mga oshdi.

Taqqoslama ekvivalentda o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 103,7 % ni tashkil etdi.



O'sish sur'ati

• 103,7 %

Hajmning o'sishi


• 1 717,7
mlrd. so'mga

Xizmatlar hajmi

• 13 523,6
mlrd. so'm

Xizmatlar – iste'molchilar (yuridik va jismoniy shaxslar) holatini o'zgartiradigan yoki tovarlar, xizmatlar va moliyaviy aktivlar bilan ayirboshlashiga ko'maklashadigan ishlab chiqarish faoliyatining natijasi hisoblanadi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmini taqqoslanishi, mlrd. so'm




2020- yilning yanvar oyiga nisbatan joriy yilning oktabr oyida (diskret oy) ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 380,3 mlrd. so'mga o'sdi va 1 593,1 mlrd. so'mga yetdi.

Taqqoslash uchun: o'tgan yilning shu davrida ularning hajmi 1 158,8 mlrd. so'mga o'sgan va 2 122,3 mlrd. so'mga teng bo'lgan.

2020- yil IX diskret (sentabr) oyining hajmiga nisbatan taqqoslaganda, 2020- yil X diskret (oktabr) oyining hajmi 233,2 mlrd. so'mga kamaydi.

Taqqoslash uchun: 2019- yilning IX va X diskret oylari o'rtasidagi farqi 831,9 mlrd. so'mni tashkil etgan.



Dastlabki ma'lumotlar

Xizmatlar sohasi ishlab chiqarish unumdorligi va samaradorligini oshirishga yordam beradigan turli xil faoliyat turlarini o'z ichiga oladi.


















**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan
xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari**
(2020- yilning yanvar-oktabr oylarida)

| | Hajmi, mlrd. so'm | O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, % da |
|---|----------------------|--|
| Xizmatlar - jami | 13 523,6 | 103,7 |
| <i>shu jumladan:</i> | | |
| Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari | 367,9 | 133,1 |
| Moliyaviy xizmatlar | 1 921,7 | 135,7 |
| Transport xizmatlari | 3 215,3 | 100,4 |
| shu jumladan: avtotransport xizmatlari | 3 075,1 | 101,5 |
| Yashash va ovqatlanish xizmatlari | 449,1 | 81,6 |
| Savdo xizmatlari | 4 646,9 | 103,0 |
| Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar | 417,1 | 91,5 |
| Ta'lim sohasidagi xizmatlar | 463,7 | 103,2 |
| Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar | 217,6 | 77,5 |
| Ijara xizmatlari | 416,5 | 104,9 |
| Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar | 256,0 | 92,6 |
| Shaxsiy xizmatlar | 334,7 | 94,0 |
| Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar | 470,4 | 96,8 |
| Boshqa xizmatlar | 346,6 | 80,2 |

Dastlabki ma'lumotlar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibida eng katta ulushni savdo xizmatlari egallaydi. Shunday qilib, 2020- yilning yanvar-oktabr oylarida ularning ulushi 34,4 % ni tashkil etdi. Shu bilan birga, yuqori ko'rsatkichlar transport xizmatlari (23,8 %), moliyaviy xizmatlar (14,2 %) qayd etildi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning tarkibi

| Eng yuqori ulush  | | Eng past ulush  | |
|--|-----------------------------------|--|---|
|  | Savdo xizmatlari | 34,4 % 33,8 % |  Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar |
|  | Transport xizmatlari | 23,8 % 24,3 % |  Ijara xizmatlari |
|  | Moliyaviy xizmatlar | 14,2 % 11,9 % |  Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari |
|  | Me'morchilik sohasidagi xizmatlar | 3,5 % 3,4 % |  Boshqa xizmatlar |
|  | Ta'lim sohasidagi xizmatlar | 3,4 % 3,3 % |  Shaxsiy xizmatlar |
|  | Yashash va ovqatlanish xizmatlari | 3,3 % 4,3 % |  Kompyuterlarni ta'mirlash xizmatlari |
|  | 2019-y. yanvar-oktabr | |  Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar |
|  | 2020-y. yanvar-oktabr | | |


Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar ko'rsatish hajmlarining uncha katta bo'lmagan o'sishi kuzatildi, ularning ulushi atigi 1,6 % ni tashkil etdi.

Dastlabki ma'lumotlar

Shuningdek, nisbatan yuqori bo'lmagan ulush kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar - 1,9 %, shaxsiy xizmatlar - 2,5 %, shuningdek, boshqa xizmatlar hissasi 2,5 % ga to'g'ri keldi.

Yuqori o'sish moliyaviy xizmatlar (35,7 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (33,1 %), shuningdek, ijara xizmatlari (4,9 %), ta'lim sohasidagi xizmatlar (3,2 %), savdo xizmatlari (3,0 %), transport xizmatlarida (0,4 %) qayd etildi. Xizmatlar sohasiga taalluqli bo'lgan boshqa barcha faoliyat turlari bo'yicha o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'atlarining pasayishi kuzatilmoqda.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'atlari taqqoslanishi, % da



Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi sezilarli darajada (22,5 % ga) pasayishi qayd etildi. Shu bilan birga, yashash va ovqatlanish xizmatlari (18,4 % ga), ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar (8,5 % ga),

Dastlabki ma'lumotlar

kompyuterlarni ta'mirlash xizmatlari (7,4 % ga), shaxsiy xizmatlar (6,0 % ga), shuningdek, me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlarda (3,2 % ga) pasayish kuzatildi.

Har bir mamlakatning iqtisodiy hayotida muhim o'rin tutuvchi savdo sohasi ishlab chiqarish va iste'mol o'rtasidagi aloqani ta'minlaydi, shuningdek, tovarlarni ishlab chiqarish hajmi va tarkibiga, ularning turlarini yaxshilanishiga va sifatini oshishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Savdo bu – tovarlarning aylanishini, ularning ishlab chiqarish sohasidan iste'mol sohasiga o'tishini ta'minlaydigan iqtisodiyot sohasidir. Ma'lum bir davlat ichida savdo tovarlarini zarur iste'molchiga yetkazib berish vazifasini bajaradi. U ulgurji va chakana savdoga bo'linadi.

2020- yilning yanvar-oktabr oylarida, ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida savdo xizmatlarining ulushi 34,4 % ni tashkil etdi, bu esa 4 646,9 mlrd. so'mga to'g'ri keladi.

Savdo xizmatlari tarkibi

(2020- yilning yanvar-oktabr oylarida)



Joriy davrda chakana savdo xizmatlari ulushi, umumiy savdo xizmatlari hajmining qariyb to'rtidan uch qismiga, aniqrog'i 69,4 % iga to'g'ri keladi.

Ulgurji savdo xizmatlarining ulushi (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari) 22,3 % ga yetdi. Avtomobillar va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi bo'yicha xizmatlar, jumladan, avtomobillar va mototsikllarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarni qo'shgan holda, savdo xizmatlarining umumiy hajmidagi ulushi 8,3 % ni tashkil etdi.

Moliyaviy xizmatlar (2020- yilning yanvar-oktabr oylarida)

Moliyaviy xizmatlar hajmi 1 921,7 mlrd. so'mni - tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2019- yilning yanvar-oktabr oylarida ularning hajmi 1 409,9 mlrd. so'mga teng bo'lgan.



Ularning umumiy xizmatlar hajmidagi ulushi 14,2 % ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2019- yilning yanvar-oktabr oylarida ularning ulushi 11,9 % ni tashkil etdi.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan moliyaviy xizmatlar hajmini 511,8 mlrd. so'mga ko'payishi kuzatildi.




Moliyaviy xizmatlarning o'sishi 35,7 % ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2019- yilning yanvar-oktabr oylarida ularning o'sish sur'ati 147,2 % ga yetgan.

Moliyaviy xizmatlar hajmi - moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to'lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlari uchun to'lanadigan haq hisobiga ko'ra olinadi.

Zamonaviy bank xizmatlarini taqdim etish va shart-sharoitlar yaratish uchun innovatsion bank texnologiyalarining joriy etilishi chakana xizmatlarni ko'rsatishga ixtisoslashgan raqamli banklar va ularning bo'linmalarining faoliyatini tashkil etish, masofadan turib bank xizmatlarini takomillashtirish va to'lov tizimini yanada rivojlantirish moliyaviy xizmatlarning jadal rivojlanishiga xizmat qilmoqda.

Moliyaviy xizmatlar tarkibi (2020- yilning yanvar-oktabr oylarida)



Moliyaviy xizmatlar umumiy hajmida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlarning ulushi 90,4 % ni tashkil etadi.

Joriy davrda sug'urta xizmatlarining ulushi 7,4 % oralig'ida qayd etildi.

Moliyaviy va sug'urtalash xizmatlariga nisbatan yordamchi xizmatlarning umumiy moliyaviy xizmatlar hajmidagi ulushi yuqori ko'rsatkichga ega emas va u 2,2 % ni tashkil etadi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari




2020- yilning yanvar- oktabr oylarida aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining hajmi 367,9 mlrd. so'm darajasida belgilandi.

O'tgan yilning mos davriga nisbatan ushbu turdagi xizmatlarning o'sish sur'ati 133,1 % ga yetdi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmdagi ulushi 2,7 % ni tashkil etdi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining tarkibi



Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmida eng katta ulushni telekommunikatsiya xizmatlari (simli va mobil aloqa xizmatlari, Internet tarmog'i, yo'ldoshli aloqa xizmatlari va boshqalar) egallab, 92,6 % ni tashkil etdi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining umumiy hajmidagi ulushida kompyuter dasturlashtirish, maslahat berish xizmatlari va boshqa yordamchi xizmatlar - 1,3 %, boshqa aloqa xizmatlari - 1,2 %, axborot sohasidagi xizmatlar - 1,1 %, shuningdek, noshirlik xizmatlari - 3,8 % dan tashkil etdi.

Dastlabki ma'lumotlar

Ma'lumki, fuqarolarni yuqori sifatli va hamyonbop narxlardagi ta'lim bilan ta'minlash, jamiyat taraqqiyotini, uning kelajagini aniq belgilab beradigan vazifadir.

Ta'lim sohasidagi xizmatlar

2020-yilning yanvar-oktabr oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi 463,7 mlrd. so'mga yetib, bozor xizmatlari umumiy hajmidagi ulushi 3,4 % ni tashkil etdi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 103,2 % ni tashkil etdi.




Yashash bo'yicha xizmatlar hajmi, qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (2020- yilning yanvar-oktabr oylarida)

O'tgan yilning shu davriga nisbatan yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning o'sish sur'ati atigi 81,6 % ni tashkil etdi, ularning hajmi esa 449,1 mlrd. so'mga teng bo'lgan.

Ushbu davrda ularning bozor xizmatlari umumiy hajmidagi ulushi atigi 3,3 % ni tashkil etdi.

Dastlabki ma'lumotlar



2019- yil yanvar oktabr oylariga nisbatan yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmi 58,9 mlrd. so'mga kamaydi.

Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar - oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlatilgan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatidir.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibi (2020- yilning yanvar-oktabr oylarida)




Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning umumiy hajmida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlarning ulushi 86,9 % bilan ustunlik qiladi.

2020- yilning yanvar-oktabr oylarida yashash bo'yicha xizmatlar ulushi 13,1 % ni tashkil etdi.

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi bu - sog'liqni saqlash muassasalarining tibbiy va sanitariya xizmatlari, shuningdek, tashkilotlar va tibbiyot korxonalari, stomatologiya, fizioterapevtik, gomeopatik poliklinikalar, kosmetologiya klinikalari, giyohvand moddalarni iste'mol qiluvchilarni davolash ambulatoriyalari, laboratoriya va sanitariya-epidemiologiya profilidagi muassasalar tomonidan ko'rsatilgan bozor xizmatlarining qiymatidir.

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (2020- yilning yanvar-oktabr oylarida)


2020- yilning yanvar-oktabr oylarida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlarning hajmi 217,6 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Xizmatlar umumiy hajmida ularning ulushi 1,6 % ni tashkil qildi.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 77,5 % ni tashkil etdi.

Hududlar kesimida ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibi, % da (2020- yilning yanvar-oktabr oylarida)



Bozor xizmatlari-ning umumiy hajmida Nurafshon shahrining ulushi eng ahamiyatli bo'lib, 21,6 % ni tashkil etadi. Bu aholining real daromadlari boshqa tumanlardan ko'ra yuqoriroq ekanligi bilan izohlanadi.

Shuningdek, eng katta ulush Qibray (9,6 %), Zangiota (7,5 %) tumanlari va Chirchiq shahrida (7,1 %) qayd etildi.

Xizmatlar sohasining nisbatan past ko'rsatkichlari Quyi Chirchiq (1,3 %), Piskent (1,4 %), Oqqo'rg'on (1,5 %), Ohangaron (1,8 %), Bekobod (2,0 %) va Bo'ka (2,0 %) tumanlarida kuzatildi.


Ma'lumot uchun: 2019- yilning yanvar-oktabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida Nurafshon shahrining ulushi 19,2 % ni tashkil etgan.

Quyi Chirchiq tumanining ulushi esa eng past ekanligi - 1,4 % kuzatilgan.

Hududlar kesimida ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'atlari, o'tgan yilga nisbatan % da (2020- yilning yanvar-oktabr oylarida)

Ushbu davr mobaynida nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Nurafshon shahar (116,3 %), Chirchiq shahar (104,7 %), Ohangaron (105,2 %), Bo'stonliq (101,5 %), Yuqori Chirchiq (101,5 %), Parkent (101,4 %), Zangiota (101,3 %), Bo'ka (101,2 %) va Oqqo'rg'on (101,1 %) tumanlarida qayd etildi.

Nisbatan yuqori bo'lmagan o'sish Bekobod shahar (0,9 %), Ohangaron shahar (0,7 %), Quyi Chirchiq (0,9 %), Bekobod (0,7 %) va Yangiyo'l (0,7 %) tumanlarida qayd etildi.



Ko'rilayotgan davrda, resurslardan samarali foydalanish natijasida hududlar bo'yicha Nurafshon shahri ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmini o'sishiga ta'sir ko'rsatdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan ushbu hududda ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 646,5 mlrd. so'mga oshdi va 2 917,9 mlrd. so'mga yetdi.



TOSHKENT VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

Dastlabki ma'lumotlar

Hududlar bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (2020- yilning yanvar-oktabr oylarida)

| | Hajmi, mlrd. so'm | O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, % da | |
|--------------------------|----------------------|---|--------------|
| | | 2020- y. | 2019- y. |
| Toshkent viloyati | 13 523,6 | 107,9 | 106,2 |
| <i>shaharlar :</i> | | | |
| Nurafshon | 2 917,9 | 123,8 | 129,4 |
| Olmaliq | 691,4 | 106,1 | 102,4 |
| Angren | 650,6 | 105,3 | 100,9 |
| Bekobod | 525,9 | 102,6 | 101,7 |
| Ohangaron | 331,9 | 103,7 | 102,2 |
| Chirchiq | 953,9 | 103,9 | 107,3 |
| Yangiyo'l | 434,0 | 102,8 | 101,5 |
| <i>tumanlar :</i> | | | |
| Oqqo'rg'on | 207,9 | 102,5 | 102,1 |
| Ohangaron | 242,8 | 102,9 | 100,3 |
| Bekobod | 273,1 | 102,8 | 102,7 |
| Bo'stonliq | 652,1 | 107,4 | 104,3 |
| Bo'ka | 267,9 | 102,8 | 101,3 |
| Quyichirchiq | 182,5 | 102,3 | 101,9 |
| Zangiota | 1 014,2 | 105,5 | 106,3 |
| Yuqori Chirchiq | 509,5 | 106,2 | 104,5 |
| Qibray | 1 299,6 | 110,5 | 102,5 |
| Parkent | 427,1 | 106,1 | 103,7 |
| Piskent | 193,8 | 101,9 | 102,2 |
| O'rta Chirchiq | 329,4 | 104,0 | 100,5 |
| Chinoz | 347,0 | 97,6 | 106,4 |
| Yangiyo'l | 434,1 | 104,1 | 100,0 |
| Toshkent | 636,8 | 104,7 | 100,1 |

**) Hududlar bo'yicha taqsimlanmaydigan hajmlarni qo'shgan holda*

Shu bilan birga, nisbatan yuqori ko'rsatkichlar Qibray (1 299,6 mlrd. so'm), Zangiota (1 014,2 mlrd. so'm) tumanlari va Chirchiq shahrida (953,9 mlrd. so'm) qayd etildi.

Ma'lumki, zamonaviy O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish istiqbollari, milliy va mahalliy manfaatlarni hisobga olgan holda, respublikaning har bir iqtisodiy tumani va viloyatlarining barcha resurslardan oqilona foydalanishiga bog'liqdir.

Xizmatlar sohasining rivojlanish darajasi aholining hududiy va ijtimoiy harakatchanligini, yangi xo'jalik hududlarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish samaradorligini va moddiy mahsulotlar iste'molini oshirishni ta'minlaydi.

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining har oyda o'sishi kuzatilmoqda.

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari

2020- yilning yanvar- oktabr oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 4 568,9 ming so'mga yetdi.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 102,1 % ni tashkil etdi.

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining hajmi – 4 568,9 ming so'm

O'sish sur'ati % da, 2019- yil yanvar-oktabr oylariga nisbatan - 102,1 %

Hajmning o'sishi, 2019- yil yanvar-oktabr oylariga nisbatan - 517,8 ming so'mga


Xizmatlar sohasi ishlab chiqarish unumdorligi va samaradorligini oshirishga yordam beradigan turli faoliyatlarni o'z ichiga oladi.

Xizmatlar sohasida iqtisodiy o'sishning asosiy omillari, aynan, yangi ilmiy bilimlar, aqliy kapital, axborot texnologiyalari, moliya sektori xizmatlari, konsalting va boshqalar shakllanishi bilan izohlanadi.

**2020- yilning 1- noyabr holatiga ko'ra,
xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan
korxonalar va tashkilotlar to'g'risida ma'lumot**
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



2020- yilning 1- noyabr holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning tarkibi, % da (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



2020- yilning 1- noyabr holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi - 48,7 %, sanoat - 15,1 %, qurilish - 6,2 % ga yetdi.

Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi sohasi 30,0 % ga to'g'ri keldi.

2020- yilning 1- noyabr holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibi, % da (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar tarkibida, savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalar va tashkilotlar yuqori ulushni (43,8 %) egallaydi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmat ko'rsatuvchi korxonalar va tashkilotlarning ulushi 11,9 % ni tashkil etdi.




Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar tarkibida tashish va saqlash faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalar va tashkilotlarning ulushi 5,7 % ga yetdi.

Axborot va aloqa faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalar va tashkilotlarning jami xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar tarkibidagi ulushi 2,0 % ga teng bo'ldi.

Sog'liqni saqlash, shuningdek, ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi 2,7 % ni tashkil etdi.

Ma'lumot uchun: 2019- yilning 1- noyabr holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida 23 251 ta korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatgan. Ularning umumiy tarkibida savdo xizmatlari – 39,6 %, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar - 12,4 %, tashish va saqlash - 5,6 %, axborot va aloqa - 2,0 %, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish - 2,7 %, hamda boshqa turdagi xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar – 37,7 % ni tashkil etgan.

2020- yilning 1- noyabr holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar sonining ko'payishi va o'sishi
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




O'tgan yilning shu davriga nisbatan xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 4 355 taga ko'paydi.

Taqqoslash uchun: 2019- yil 1- noyabr holatiga ko'ra, ularning soni 4 320 taga ko'paygan.

Kuzatilayotgan davrning o'tgan yilga nisbatan savdo faoliyati sohasidagi yuqori o'sishi – 31,4 % ekanligi aniqlandi. Ushbu sohada faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 2 891 taga ko'paydi va 12 097 taga yetdi.





Shuningdek, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar bilan bog'liq faoliyatda ham o'sish kuzatildi - 14,2 %. Ushbu sohada faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 410 taga ko'paydi va 3 292 tani tashkil etdi.

2020- yilning 1- noyabr holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi, % da
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



2020- yilning 1- noyabr holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar umumiy sonida kichik tadbirkorlik subyektlarining hisssasi 87,5 % ga to'g'ri keladi.

Taqqoslash uchun: 2019- yilning 1- noyabr holatiga ko'ra, ularning ulushi 86,3 % ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlariga tegishli faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining o'sishi, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar umumiy sonining o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

2020- yilning 1- noyabr holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari to'g'risida ma'lumot
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



2020- yilning 1- oktabr holatiga ko'ra, o'tgan yilning shu davriga nisbatan xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni 4 346 taga ko'paydi.

Natijada, ularning soni 21 873 tani tashkil etdi va o'sishi esa 22,9 % ga oshdi. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining umumiy sonida xizmatlar sohasida band bo'lganlarning ulushi 56,0 % ga yetdi.

Taqqoslash uchun: o'tgan yilning shu davrida xizmatlar sohasida band bo'lgan kichik korxonalar va tashkilotlar sonining ulushi 55,2 % ekvivalentida qayd etildi.



TOSHKENT VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

Dastlabki ma'lumotlar

Respublikada xizmatlar sohasining rivojlanishi aholining o'sib borayotgan to'lov qobiliyati va imtiyozlariga, xususan, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda, ayniqsa zamonaviy xizmat turlariga bo'lgan iste'molchilar talabini qondira oladigan kichik biznesning rivojlanishiga bog'liqdir.

Boshqacha qilib aytganda, bir tomondan, xizmatlarni ishlab chiqarish hajmiga uy xo'jaliklari daromadlari va imtiyozlar, xizmatlarga tariflar, boshqa tomondan - investitsiyalar, soliq, pul-kredit va davlat siyosati, ilmiy-texnik siyosat, shuningdek, kichik biznesning rivojlanishi kabi omillar ta'sir qiladi.

Xizmatlar sohasi statistikasi boshqarmasi.

Tel.: 71-202-86-72